

## Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tahlili

Sevara Furqat qizi Farmonova  
Mohinur Shuhratjon qizi Nagmatullayeva  
Muqaddas Ikromovna Murodova  
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi hamda “Daxshat” hikoyasi tahlil qilindi. Ushbu hikoyaning asosiy mazmun-mohiyati va maqsadi tahlillar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hikoya, o'zbek adabiyoti, xalq hayoti, milliy uyg'onish, ijtimoiy adolatsizlik

### Analysis of the story “Dakhshat” by Abdulla Qahhor

Sevara Furkat kizi Farmonova  
Mohinur Shuhratjon kizi Nagmatullayeva  
MUKaddas Ikromovna Murodova  
Samarkand State University Kattakorgan branch

**Abstract:** This article analyzed the life and work of Abdulla Qahhor and the story “Dakhshat”. The main content and purpose of this story is revealed on the basis of analysis.

**Keywords:** story, Uzbek literature, people's life, national awakening, social injustice

Abdulla Qahhor - o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, millatning adabiy va ma'naviy uyg'onishiga katta hissa qo'shgan yozuvchilardan. U shu bilan birga bir qancha hikoyalari bilan o'zbek adabiyotda o'z o'rniga ega bo'ldi. A.Qahhor “Sinchalak”, “O'tmishdan ertaklar” va “Muhabat” qissalar hamda “Qo'shchinor chiroqlari” roman, bundan tashqari “Boshsiz odam”, “Bemor”, “O'g'ri”, “Dahshat”, “Adabiyot muallimi”, “Millatchilar”, “San'atkor”, “O'jar”, “Asror bobo” kabi o'nlab hikoyalar yozgan. “Shohi so'zana”, “Og'riq tishlar”, “Ayajonlar”, “Tobutdan tovush” nomli muallifi. Abdulla Qahhor bir qancha mashhur adiblarimizning, ya'ni Cho'lponning “Oydin kechalar”, “Qor qo'ynida lola”, A.Qodiriyning “Uloqda”, hikoyalariga tayangan holda o'zining hikoyalarini yozdi va ularni yuqori darajasiga ko'tardi. Bu hikoyalari bilan butun dunyoga o'zbek novellistik adabiyotini tanitdi. “Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining

eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin", - deb yozgan edi rus tanqidchisi V.Smirnova [1;26].

A.Qahorning "Dahshat" hikoyasiga to'xtalsak, bu asar o'sha davrdagi xalq hayoti va ayollarning ruhiy holatlari tasvirlangan. Voqealar jarayoni Olimbek dodxoning uyi va qabristonda bo'lib o'tadi. Hikoyaning boshlanishi Olimbek dodxoning uyidagi sakkiz xotini va atrofda ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli bilan boshlanadi. Bu parchaning boshlanishida Dodxoning tasbehni o'girayotgani tasvirlangan.

Tasbeh Dodxo uchun ko'ngilni tinchlantiradigan, xotirjamlik beradigan narsa hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, uning xayoli go'ristonda va qo'rquvini kuchaytiruvchi vahimali fikrlarda edi. Go'ristonning "vahimali" va "xunuk" sifatlarida ishlatilishi Dodxo qalbini bezovta qilayotgan, o'limni va u bilan bog'liq qo'rquvni ta'kidlaydi. Voqealar davomida eshikka nimadir keilib uriladi va bo'yra bo'lib chiqadi. "Gapdan gap chiqib Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi.

- Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go'ristonga borib, Asqar ponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?» - degan gap bo'lipti. Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: «Men sanchib kelaman», - deпти. Bitta qo'ydan garov bog'lashib yo'lga tushipti. Jo'ralari hali kutishar emish - yo'q, hali kutishar emish -yo'q; tong otipti, uyida ham yo'q emish; go'ristonga borib qarashsa, Asqar ponsotning go'ri oldida o'lib yotgan emish! Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo'lgan-da..." [2;143].

Nodirmohbegimning aytib bergan voqeasi inson ruhiyatidagi qo'rquv va o'z-o'zini ruhiy jihatdan yengish qiyinligini ko'rsatadi. Bu voqea xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan, mistik va qo'rqinchli hikoyalarga o'xshaydi. Bu kabi hikoyalar o'quvchiga hayajon va vahima hissini uyg'otadi.

Shuningdek, bunday voqealar jamiyatdagi odatlarni, xalqning ruhiy dunyosini aks ettiradi. A.Qahhor ushbu tasvir orqali o'z asarida xalqning axloqiy va ruhiy dunyosiga chuqur kirib borishga muvaffaq bo'lgan.

Ushbu voqeadan keyin bosh qahromomlar o'zaro bahs bog'lashadi. Natijada Unsin qabiristonga borib qumg'onda choy damlab kelish sharti berildi. Unsin bu bahsdan qo'rqmadi, chunki ota-onasini oldiga, ya'ni Ganjiravonga ketish umidi bor edi. Uni birgina so'z olg'a yurishga yordam berdi: "O'likning joni yo'q!".

"Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi dodxo xayolida go'riston qandoq dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo'lsa ham, tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi"[3;143].

Yuqoridagi satirda dahshat so'zi besh marta takrorlanga. Unsin go'ristonning bu dahshatli tasvirini qabul qilmaydi, uning uchun tiriklar dunyosidagi muammolar ko'proq ahamiyatli. U go'ristonning o'limdan ham kuchliroq ramzini tiriklar go'ristoni, ya'ni o'zining hayoti bilan bog'laydi. O'limga emas, hayotga bo'lgan mehr - Unsinning yaqin kelajakda ota-onasi va dugonalari bilan ko'rishish istagi uning boshini o'lim haqida xayollardan chalg'itadi va umid bilan to'ldiradi.

Shu davrda ayollarga bo'lgan munosabat yomon munosabatda bolishgan, shuning uchun Unsin hato o'lishini bila turib, katta tavakalga qo'l chozdi. Budunyodan ozod bo'lib oldi. Unsindan keyin Olimbek dodxonning katta xotini Nodirmohbegim ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin: «Bu dargohni endi yelkamning chuquri ko'rsin», deb chiqib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor "Daxshat" hikoyasi orqali eski zamonlardagi o'zbek ayollarining boshiga tushgan og'ir sinovlarni, ularning xo'rlik va mashaqqatlarini yorqin tasvirlaydi. Hikoya, shuningdek, insonning erksizlikdan ozodlikka intilish, ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib, haqiqiy hayotga erishish yo'lidagi kurashini ifodalaydi. Yozuvchi insoniy jasorat, chidamlilik va mashaqqatlarga qaramay o'z yo'lidan qaytmaslik kabi qadriyatlarni yuksak darajada yoritib, o'quvchini hayotning haqiqiy qiymati va ma'nosi haqida o'ylashga undaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. - B.232
2. Sodiqov S. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. Toshkent: „O'zbekiston“, 1996. - B.430
3. Qo'chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma'naviyat nashr. 1999. - B.95
4. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. - T.: „O'qituvchi“, 1999. - B.500.
5. Bahor Bahriddinovna Turaeva. (2021). THEORETICAL AND POETIC PECULIARITIES OF THE CHRONOTOPE IN THE NOVEL “THE PLACE OF THE SKULL” BY CH. AITMATOV. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology*, 18(5), 84-103. Retrieved from <https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/7570>
6. Sobirov Anvar Kuvandikovich. (2019). Inversion as a stylistic instrument in poetic speech. *Proceedings of The ICECRS*, 3. <https://doi.org/10.21070/icecrs.v3i0.297>
7. Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION

TECHNOLOGY. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR),  
8(3), 15-17.